

SHAHRISABZ VOHASI QISHLOQ AHOLISINING UY JOYLARI, ULARNING
TURLARI VA XO'JALIK BINOLARIDAGI TRANSFORMATSIYALAR

Ergashev Baxtiyor Jamil o'g'li
Uchtepa tumani 62-umumiy o'rta ta'lim
maktabining tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Qashqadaryo vohasining markazi va qalbi bo'lgan Shahrisabsning qishloq aholisi uy-joylari, ularning turlari va tavsiflari, xo'jalik binolari hamda ulardagi transformatsiyalar xususida maqolada batafsil, tadqiqotlar asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo vohasi, Shahrisabz, qishloq, uy-joylar, transformatsiya, qo'g'onlar.

Abstract: The article describes in detail, based on research, the houses of the villagers of Shahrisabs, which is the center and heart of the Kashkadarya oasis, their types and descriptions, farm buildings and their transformations.

Key words: Kashkadarya oasis, Shahrisabz, village, houses, transformation, kogons.

Аннотация: В статье на основе исследований подробно описаны дома жителей села Шахрисабз, являющегося центром и сердцем Кашкадарьинского оазиса, их типы и описания, хозяйственные постройки и их преобразования.

Ключевые слова: Кашкадарьинский оазис, Шахрисабз, село, дома, трансформация, гогоны.

Ilk o'rta asrlar davrida Qashqadaryo vohasida Kesh va Naxshabdan tashqari boshqa shahar mavjud bo'lmaganligi taxmin qilinadi. Lekin X-XI asrlarga kelib bu yerda maydoni 10 gektardan ortiq bo'lgan shaharlar soni oshishi jarayoni kuzatiladi. Adabiyotlarda mavjud nuqtai nazarlardan biriga ko'ra Qashqadaryo vohasi X-XI asrlarda asosiy tarixiy voqealardan chetda bo'lgan va shu tufayli ham yozma yozma manbalarda uning asosiy shaharlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilmaydi. Shunday bo'lsada aholi vakillarining uy-joylari qanday yusnda bo'lganligini, nimadan barpo etilganligini, qanday vazifani bajarganligini biz Shahrisabz tumanida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan bilib olishimiz mumkin. Agarda Kesh va Naxshabga –Qashqadaryoninmg asosiy shaharlari deb katta e'tibor beradigan bo'lsak, yuqoridagi fikrning to'g'riligiga shubha tug'uladi. Bundan tashqari o'rta asr mualliflari Keshning alohida shaharlari - Xuzar, Subax, Iskifan, Naukat, Kuraysh va Sangananimisol qilib keltirishimiz mumkin.⁴ Keyingi davrlarda Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror" (Sirlar degizi-Geografiya) asarida shaharni quyidagicha tariflagan: "Kesh-Movoraunnahr shaharlaridan biri, yam – yashil bog'lar va ko'zga quvonch baxsh etuvchi gulzorlari tufayli u hozir ham Shahrisabz nomi bilan shuhrat topgan. U jahondagi eng chiroyli shaharlardan biri hisoblanadi, iqlimi ham juda yaxshi va diltortar"⁵.

⁴ A.S.Sagdullayev, B.B.Aminov "Qashqadaryo tarixidan lavhalar " Qarshi: "Nasaf" 14-15 b

⁵ Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror"(Sirlar degizi-Geografiya)

Shahrisabz – O‘zbekistondagi qadimiy shaharlardan biri. O‘rta asrlarda Kesh deb nomlangan Shahrisabz vohasining poytaxti ham Kesh nomi bilan atalgan. U Kitob va Shahrisabz o‘rtasida joylashgan.

Manbalarda Shahrisabz shahri “Kesh”, “Kashsh”, “Kas” shakllarida tilga olingan⁶. Shahrisabz nomi ham shaharning qadimiy nomi bo‘lib, yashil shahar degan ma‘noni anglatadi. Shahrisabz ilk o‘rta asrlarda Kitob shahri o‘rnida joylashgan. Sh.S. Kamoliddinovning yozishicha, vaqt o‘tishi bilan shahar markazi hozirgi Shahrisabz atrofiga ko‘chgan⁷. Keyinchalik shaharning mudofaa devori bilan o‘rab olinishi va shaharning mustahkam qal‘aga aylanishi Sohirqiron Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq. Shahrisabz Amir Temur davrida aniq rejali, uzun va pishiq qilib qurilgan himoya devori va mustahkam minoraga ega bo‘lgan shaharga aylangan. Ammo XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib, iqtisodiy inqiroz sababli Shahrisabz tang ahvolda qolgan va bu hol XIX asr boshlarigacha davom etgan.

Shahrisabz shahri o‘rta asr shahar-davlatlari singari uch qismdan – shahriston (o‘rta qo‘rg‘on), qal‘a va raboddan iborat bo‘lgan. Bek qo‘rg‘oni shaharning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan bo‘lib, u xalq orasida Shahrisabz Afrosiyobi nomi bilan atalgan. Qo‘rg‘onning ikkita darvozasi bo‘lib, sharqiy darvoza To‘pxona, janubiy darvoza Ko‘k darvoza deb nomlangan⁸. Qo‘rg‘on oldida shaharning asosiy maydoni – Registon joylashgan. Shahar markazida joylashgan aylanma gumbazli Chorsudan shaharning to‘rt tomoniga ko‘chalar ketgan va bu ko‘chalar orqali shahar darvozalariga borilgan.

Shaharni tashqi muhitdan ajratib turuvchi qal‘a devorlarining 6 ta darvozasi mavjud bo‘lgan. Shimoliy darvoza – Kitob (ikkinchi nomi Samarqand yoki Ark), sharqiy darvoza – Kunchiqar, g‘arbiy darvoza – Kushxona (Chiroqchi yoki Qibla), janubiy darvoza – Charmgar (Yakkabog‘) deb atalgan. Bular bilan bit qatorda, janubiy-sharqiy burchakda ikkinchi darajali Qalmaq (mahalliy tilda Qaymoq) darvoza va Simxona darvozalari ham mavjud bo‘lgan.

Shaharda 7 ta karvonsaroy va 2 ta hammom bo‘lgan. Shahar guzarlarga bo‘lingan va har bir guzar o‘z masjidiga ega bo‘lgan. A.L. Kun keltirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asrning ikkinchi yarmida shaharda 14 ta guzar mavjud bo‘lgan, XX asr boshiga kelib esa guzarlar soni 52 taga ko‘paygan.

Shahrisabz guzarlari uncha katta bo‘lmagan, ularning eng kattasi 100 ga yaqin xo‘jalikni birlashtirgan bo‘lsa, kichigida 20-30 oila istiqomat qilgan.

O.A. Suxarevaning tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, uy-joylar soni 2789 ta ko‘rsatilgan. Umuman olganda, shahar guzarlarida 3000 ga yaqin uy-joy mavjud bo‘lgan. O‘rtacha hisobda har bir uyda 6 kishidan istiqomat qilgan bo‘lsa, u holda shahar aholisi 18 000 kishini tashkil etgan⁹. Ushbu ma‘lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, shahar aholisi 18-20 ming nafar atrofida bo‘lgan.

⁶ Камалиддинов Ш.С “Китаб ал-ансаб” Абу Саъа Абдулкарима ибн Махаммада ас-Самани как источник по истории и истории культуры Средней Азии –Ташкент:”Фан”, 1993.- С.108.


⁷ Камалиддинов Ш.С Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным историчникам. IX – начало XIII вв.- Ташкент: “Фан”, 1996.-С.21.

⁸ Дресвянская Г, Усманова З. Из истории Кеша. – Ташкент,1976.-С.7

⁹ Ўша жойда.-С.131.

Shahrisabz begining qo'rg'onida bek va unig oilasi, shuningdek, bekligni boshqaruvchi hokimiyat vakillari istiqomat qilishgan. Saroy ayonlari bek qo'rg'oniga yaqin guzarlarda yashaganlar. Masalan; Sangioxur guzarida "Katta podsholik uyi" joylashgan bo'lib, unda bekligning yuqori tabaqa ahli istiqomat qilganlar va hurmatga loyiq bo'lgan mehmonlar va elchilar shu yerda kutib olingan. Shaharning shimoli-g'arbiy tomonida joylashgan So'piguzarda shahar din peshvolarining uy-joylari joylashgan. Bundan tashqari, Kultepa, Hazrati Shayx, hazrati Imom guzarlarida yashovchi xo'jalar Hazrati Shayx va Hazrati Imom mozorlariga kelib tushgan hayru ehsonlar hisobidan hayot kechirgan¹⁰. Xo'jaguzar va eshonguzar ahli esa dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar.

Turar-joylar o'zining har xil xususiyatiga qarab quyidagilarga bo'linadi:



Ushbu jadval

vohaning barcha hududlarida uchraydidan uy-joy rejasi hisoblanadi. Faqatgina, hudud doirasida, tabiiy sharoit jihatidan farqlanishini kuzatib o'tishimiz mumkin. Shahrisabz vohasi tog'lik aholining xo'jaligini chorvachilik, ayrim qishloqlarda dehqonchilik, lalmikor yerlarda lalmi dehqonchiligi, kamdan kam holatlarda hunarmandchilik tashkil qiladi. Tadqiqot davomida aholining hovli tuzulishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin. Asosan Sayyod va unga tutash qishloqlarning imorat tarxi quyidagicha:

- Aholi turar joyi(yotoqxona, bolalar xonasi va boshqalar)
- Oshxona (tandir, o'choq bor. Non va ovqat shu yerda tayyorlanadi)
- O'tinxona
- Molxona (og'il, qo'ra)
- Sayizxona (navis)
- Xojatxona
- Tovuqxona (katak)
- Omborxona
- Mehmonxona

Shahrisabzning bu qismida yashaydigan aholining xo'jaligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Bu yerda aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Xo'jalik binolari dehqonchilik buyumlarini saqlashga va hosilni saqlashga ham kerak bo'ladi.

Oshxona – ovqat oshxonada qilinadi, u yerda tandir va o'choq bor. Tandirda qishloq aholisi bir haftada ikki marotaba non pishiradilar. O'choqda ovqat qilinadi, choy qaynatiladi. Hozirgi vaqtda qishloqdagilar suyultirilgan gaz mahsulotlaridan foydalanyapdilar. Yana oshxona o'choq va tandir uchun o'tinlar ham saqlanadi.

O'tinxona – qishki mavsumda turli xil o'tinlar hamda tezaklar saqlanadigan joydir.

Molxona – mollar, qo'ylar echkilar yotadigan qishki joydir. Qish mavsumi uchun og'ilxonada quruq hashak ham saqlanadi. Tog'ning og'ilxonalarini uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga yirik mollar bir yoshdan oshgan mollar yotadigan xona, ikkinchi

¹⁰ Намидова Муhabбат. Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихи.-Тошкент. 2009 й. -Б 33

guruhga buzoqchalar uchun maxsus xonalar va uchinchi xashak turadigan yemishxonalaridir.

Sayizxona (navis)- bu ham molxonaning bir turi bo'lib, unda yoz mavsumlarida mollarni qo'ylarni navisda bog'lashadi. Qishning issiq kunlarida ham sayizxonaga chorva mollarini bog'lashadilar.

Xojatxona, qishloq aholisining har uyida hovlining chekka qismida joylashgan. Bunga sabab – xojatxonada jinlar bo'ladi, shuning uchun aholi yashash joyidan uzoqroqda joylashdi deb javob berdi qishloq aholisi.¹¹

Omborxonona – har bir xonadonda uchraydigan xo'jalik xonalaridan biridir. Omborxonada qishloq aholisi o'zining dehqonchilik mahsulotlarini, mehnat qurollarini, o'zining istemoli uchun zahira mahsulotlarni shu yerda saqlashadi. Voha aholisining tuyllari o'zining hovlilarida bo'lib o'tadi. To'yda ketadigan barcha mahsulotlar hammasi shu yerda saqlanadi.

Mehmonxonona – har bir xonadonda uchraydigan aholi yashaydigan xonadir. Asosan, mehmonxonona uyning kirish qismida joylashgan bo'ladi. Uyga mehmon kelgan vaqtda shu yerda qabul qilinadi. Qiz farzandi bo'lgan oilalarda sovchilarni mehmonxonona qabul qilib olinadi.¹²

Hozirgi davrga kelib xo'jalik binolarida bir qancha transformatsiya jarayonlari mavjudligini ko'rib o'tishimiz mumkin. 1960- yillarda xo'jalik binolarini oddiy paxsadan qilingan bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib uning tuzulish shakli ham, bajaradigan vazifasi ham o'zgarganini kuzatishimiz mumkin. Hozirgi kunda qurulish materiallari ham o'zgargan, g'ishtdan, pishgan g'ishtdan qurilganligini kuzatamiz. Bajaradigan vazifasiga keladigan bo'lsak, oldin oshxonaga faqat ovqat va non qilinardi, so'nggi o'n yillikda esa tandir va o'choq uchun alohida xona qurildi, oshxonaga endi aholi tomonidan taom yeydigan xona sifatida foydalana boshlandi.

Vohaning tekislik hududlaridagi xo'jalik xonalari ham xuddi shunday tartibda bo'ladi. Faqatgina, yerto'lada ham xo'jalik binosi sifatida foydalanadilar. Yerto'lada voha aholisi kuzgi dehqonchilik mahsulotlarini saqlaydilar. Yozgi hamda bahorgi mavsumlarda chakki, hamda sut va sut mahsulotlarini saqlaydilar. Hozir davrda har bir vohaning qishloq hovlilari ma'lum bir reja asosida qurilganligini tadqiqotlarimiz natijasida kuzatdik. Oxirgi 20 yillikda voha qishloqlarining strukturasi qurulish tuzilishi tubdab o'zgarib bordi. Qurulishdagi zamonaviy materiallardan qishloq aholisini barcha binolarida keng foydalanib kelyapti. Qishloqlarda xo'jalik binolari oldindan ham mavjud bo'lgan. Ulardagi o'zgarishlarni tadqiqot davomida kuzatishimiz mumkin. Tog'lik mintaqada oxirgi 20 yillikda xo'jalik binolardagi o'zgarish holatlarini kamdan kam holatlarda uchratishimiz mumkin. Ayrim xonadonlarda oldin mavjud bo'lmagan hammom, garaj kabi binolar qurilganligini kuzatamiz. Tadqiqotimiz davomida Sayyod qishlog'ida yigirmata xonadondan o'ntasida garaj, o'n bittasida hammom mavjudligini tadqiqot davomida aniqladik. Endi shu holat vohaning tekislik mintaqasidagi qishloqlarda(Qorapoycha, Do'g'qishloq, Avazmalik) o'tkazilganda deyarli barcha xonadonda hammom mavjudligini, sakson foiz qishloqlarda garaj mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

¹¹ Dala materiallari Shahrisabz 2021 yil

¹² Dala materiallari Shahrisabz 2021 yil

So'nggi 20 yillikda voha uylarida yordamchi xonalar keng takomillashadi. Shular haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz: Dahliz- juda kerakli va juda muhim bo'lgan vazifalarni bajaradi. Shuning uchun turar joy loyihasining yechimida xonadonning qulay va unumli bo'lishi unga bog'liq. Dahliz yordamida xonadon tashqi muhit bilan bog'lanadi, to'g'ridan to'g'ri ko'chaga, ya'ni hovliga chiqiladi. Dahlizda kunning sovuq kunlarida ustki kiyim, bosh kiyim yechiladi va odam o'zini bu yerda o'zini tartibga soladi. Dahlizni loyihayotganda unga har xil talab qo'yiladi. Qoida bo'yicha dahlizning eni kamida 1,6 metrni tashkil etadi. Agar dahliz ichi kichikroq bo'lib qolsa, u yerda ko'proq odam to'planib qolganda ancha noqulaylik vujudga keladi. Shuning uchun dahlizning hajmini uzunchoqroq qilib loyihalash tavsiya etiladi. O'rta hajmdagi xonadonlar uchun dahlizning eni 1,6 – 2 metr, uzunligi 3 – 4 metr bo'lishi tavsiya etiladi. Bundan tashqari, albatta dor va shkafni joylashtirish uchun yopiq devor yoki tokcha bo'lishi kerak. Hojatxona va cho'miladigan xonaga dahlizdan to'g'ridan to'g'ri kirish mumkin. Dahliz uchun alohida yorug'lik shart emas, lekin iloji bor joyda uni yoritish kerak. Vaqtlar o'tishi bilan dahlizning vazifasi oshib boradi va ular asosiy xonalar oldidagi tantanavor kutish joylarga aylanadi.

Oshxonaning asosiy vazifasi ovqat tayyorlash uchun qulaylik yaratilgan bo'lishi kerak. Hozirgi davrga kelib, gaz va elektr jihozlaridan, sovitkichlardan jihozlangan bo'lishi kerak. Oshxonalar nafaqat ovqat tayyorlash, balki shu yerda ovqatni yeyishga xizmat qiladigan bo'ladi. O'zbekiston sharoitida oshxonalar, yozgi xonalar, ya'ni ayvonlar bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanishi va alohida shamollatish yo'liga ega bo'lishi kerak. Bizda yashash xonalari bilan oshxonani to'g'ridan to'g'ri bog'lab bo'lmaydi, chunki milliy taomlar tayyorlash uchun, alabta yog' yaxshilab qizdiriladi va bunda juda ko'p tutun hamda hid paydo bo'ladi. Bu kabi hidlarni boshqa xonalarga kirishini oldini olish uchun oshxonalar yashash xonalaridan uzoqroq masofada quriladi.

Uy-joylarni aholining oilaviy hayoti kechadigan o'ziga xos "mikrodunyo" desa bo'ladi. Shu dunyoning qulay, shinam va go'zalligi esa uy sohibining ma'naviy, madaniy va ijtimoiy hayotining ko'zgusi demakdir. SHuning uchun ham uy joylarning ichki jihozlanishida aholining etnik an'analari va madaniy aloqalari o'z aksini topgan. Voha aholisi orasida uy-joylarning ichini chiroyli qilib bezatish va jihozlash qadimdan odat bo'lib kelgan. Qishloq aholisi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, etnik an'alariga amal qilgan holda uy-joylarni qulay va saranjom-sarishta qilib jihozlashga harakat qilganlar. Quyida uy-joylarning ichki jihozlanishi haqida so'z borar ekan eng avvalo xonalarning azaliy odatga ko'ra yuqori va quyi qismlarga bo'linishiga to'xtalish lozim bo'ladi. Zero, uy-joylarning ichki jihozlanishida bu qismlardagi farq yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Umuman O'rta Osiyo xalqlari uy-joylari ichkarisida eshikning qarama-qarshisi uyning yuqorisi, to'r* deb hisoblangan. Bu joy uyning eng faxrli qismi bo'lgan. Shu bois uyning bu qismi doimo yangi va qimmatbaho jihozlar: gilam, sholcha hamda to'shaklar bilan jihozlangan. Bu joyga shuningdek oilaning eng yoshi ulug', e'zozli kishisi yoxud e'tiborli mehmon o'tqazilgan. Qadimgi turkiy tilida ham to'r - e'tiborga eng molik joy¹³ - degan ma'noda qo'llanilgan. Xonaning eshik yaqinidagi kiraverish joyi esa aksincha uyning quyi, *poygah*¹⁴ deb atalgan. Bu

¹³ 127 Махмуд Қошғарий. Девони луғатит тур. - Т. 1. – Б. 550.

¹⁴ * Тур - пойгадаги жойга нисбатан юкоридаги жой, хурматли ўрин. ЎТИЛ. – Т. 2. - Б. 253.

joy uyning pastki, e'tiborsiz qismi hisoblanib, u yerda odatda poyafzal turgan¹⁵. Shuningdek, xona poygohida yuvinish, yuz-qo'l yuvish uchun ishlangan maxsus joy - obrez* qilingan. Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida yashab kelgan xalqlar, o'zining etnik kelib chiqishi, xo'jalik yo'nalishi hamda turmush tarzining qay xildagiligidan qat'i nazar butun tarixiy taraqqiyoti davomida uy ichida o'tirish va yotib dam olish uchun ishlatiladigan hech qanday uy jihozlaridan foydalanmagan. SHuning uchun ham aholi quruq erga to'shak (ko'rpacha) to'shab, yerda ovqatlangan, erda yotib dam olgan va o'z kundalik mashg'ulotlari bilan shug'ullangan¹⁶. Aynan shu jihat bilan bog'liq holda an'anaviy uylarda deraza darchalari polga yorug'lik yaxshi tushishini ta'minlash maqsadida yer bilan deyarli barobar qilib qurilgan. Shuningdek, o'rganilayotgan davrda voha qishloqlarida yashovchi aholining an'anaviy uy-joylari poli oddiy yer sathidan iborat bo'lib, yerga qamish bo'yra, uning ustidan palos, kigiz, o'ziga to'q oilalarda qimmatbaho gilamlar to'shalgan. Umuman an'anaviy xalq me'morchiligida uy-joylarni ham ichki jihozlanishi va tashqi tuzilishida har bir buyum, har bir jihozdan ham amaliy maqsadda, ham bezak sifatida foydalanishga harakat qilingan. Ya'ni, uy-joylarni jihozlashda xalq me'morchiligi usullari ham muhim o'rin tutgan. Masalan, xona devorlariga tokcha qilish O'zbekiston, Tojikiston va SHarqiy Turkistondagi uy-joylar me'morchiligiga xos xususiyatlardan hisoblanib, Vohada har bir uyning to'rttala devorida ham tokchalar bo'lgan. Arxitektor olim V.L. Voroninaning ta'kidlashicha, Shahrisabzda uyning uchta, Samarqandda va Toshkentda to'rtta, Buxoroda ikkita yoki bitta devoriga tokcha ishlangan, Xivadagi uylarda esa tokcha

umuman bo'lmagan¹⁷. Mazkur tokchalar birinchi navbatda xo'jalik buyumlarini qo'yish imkonini beradi, demak xona saranjomligini ta'minlaydi. Boy oilalarning uyida kichik tokchalar bir nechta bo'laklarga ajratilgan. U aholi orasida rezatokcha (vodiy qipchoqlarida esa rezatokcha) deb atalib, unga choynak-piyola, kosa-tovoq va ro'zg'or uchun zarur bo'ladigan boshqa idish-tovoqlarning har biri alohida bo'linmalarga terib qo'yilgan.

Voha aholisi uy-joylarida ko'rpa-to'shak va sandiqlarni qulay joylashtirish uchun xona to'r devoriga ikkita taxmon va uning o'rtasiga mehrob* ishlangan. Mehrob tokcha taxmonga nisbatan keng va katta bo'lib, unga sandiq qo'yilgan, ustiga ko'rpa-to'shak taxlangan. Taxmon tokcha esa odatda mayda tokchalarga taqsimlangan, hamda tokchaband qilingan. Mehrobdagi ko'rpa-to'shaklarning usti odatda naqshli so'zanalar bilan yopib qo'yilgan. Bunday taxmonlar uy ichini ozoda, saranjom va xona to'rni tantanavor tarzda ko'rsatadi. Mehrob va taxmon tokchalar so'zana bilan, boy xonadonlarda gilam bilan yopilgan. An'anaviy uy-joylarni isitishda Shahrisabz aholisi pech hamda sandallardan kengfoydalanганlar. Sandalning ustidan katta ko'rpa - *sandalpo'sh* yopilgan. Oila a'zolari sandal atrofida o'tirib isinganlar va kechasi yotib dam olganlar. Axborotchilarning ma'lumotiga ko'ra o'rganilayotgan davrda kambag'al oilalarda sandal unchalik ko'p

¹⁵ 128 Баъзи уйларда пойафзалларни қўйиш учун эшикнинг тепа қисмида махсус жой - *раф* қилинган. М.Кошғарийнинг "Девони луғати турк" номли асарида бундай жой *сэру* шаклида келган. Қаранг: Девони луғати турк. Т. II. - С. 234.

¹⁶ 129 Снесарев Г.П. Традиция мужских союзов в ее позднейшем варианте у народов Средней Азии: Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958-1961 гг. Вып. 7. Памятники средневекового времени // МХЭ. 1963. - С. 155-205.

¹⁷ 134 Ворнина В.Л. Народное традиции архитектура Узбекистана... - С. 26.

tarqalmagan bo'lib, sababi ularning ko'mir, yog'och va ko'rpa-to'shak kabilarni sotib olishga imkoniyatlari bo'lmagan.

* *Taxmon* – uy yoki ayvon devorida – sandiq o'rnatib, ustiga o'rin-ko'rpa yig'ib qo'yiladigan tokchasimon maxsus joy.

* *Mehrob (a)* – masjid ichida uning qibla tomonidagi taxmonga o'xshash joyi (namoz shu tomonga qarab o'qiladi).

Xulosa qilsak: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida :

– Vohada yashovchi o'troq aholining manzilgohlari ham o'zining geografik joylashuvi, tashqi ko'rinishi, aholisining zichligi va joylashish xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lganligini;

– Shartli ravishda Shahrisabzda yashayotgan aholi vakillarining uy-joylarini biz ikki guruhga ajratilganligini;

– Birinchi guruhga Tog'lik hududlarda yashovchi aholi vakillari. Bu hududlarda yashayotgan aholi vakillari asosan qishloqlari o'zaro keng hududning geografik o'rniga qarab, re'jasiz qurilganligini,

– Ikkinchi guruhga vohaning tekislik qismida yasovchi aholi vakillari uylarini;. Bu hududda istiqomat qiluvchi aholi vakillarining turar-joylari haqida qisqacha to'xtalib o'tdik. Asosan vohadagi uylarning qay yusnda qanday mahsulotdan bunyod qilinganligi haqida vohaning ikki hududini o'zaro solishtirish yo'li bilan taqqoslandi.

Shahrisabzning tog'li hamda tekislik qismida yashaydigan aholining xo'jaligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Bu yerda aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Xo'jalik binolari dehqonchilik buyumlarini saqlashga va hosilni saqlashga ham kerak bo'ladi.